

# MELAZMA: UNING DAVOSIDA SAMARALI TA`SIR ETUVCHI GIDROXINONNING ORGANIZM UCHUN FOYDALI VA ZARARLI TA`SIRLARI

*Bo‘riboyeva Zarnigor G‘ayratjon qizi  
Andijon Davlat Universiteti,  
Tabiiy fanlar fakulteti, kimyo yo`nalishi talabasi;*

**Annotatsiya:** Maqolada melazma va uni davolashda foydalilaniladigon gidroxinon moddasining salbiy va ijobiy ta`sirlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** melazma, gidroxinon, giperpigmentatsiya, DNK.

Melazma - bu yuzda paydo bo`lgan qoramtilar dog`lar bilan namoyon bo`luvchi keng tarqalgan teri muammosi hisoblanadi. Ushbu maqolada melazma va uni davolashda ishlatiladigon tarkibida faol moddasi gidroxinon bo`lgan kremlarning hususan gidroxinonning ta`sirlari haqida atroflicha so`z boradi.bundan tashqari gidroxinonning inson salomatligiga ta`siri hamda salbiy va ijobiy tomonlari ham yoritilgan.

Melazma, yoki xloazma , odatda yuzning peshona, yonoq, burun hamda iyak qismlarida uchraydi. Melazma quyidagi sabablarga ko`ra paydo bo`lishi mumkin:

- Genetik moyillik
- Gormonal o`zgarishlar ( masalan, homiladorlik)
- Quyosh nuriga haddan tashqari ta`sirlanish
- Ma`lum dori-darmonlar

Melazmaning asosiy belgilari:

- Yuzda paydo bo`ladigon quyuq rangli dog`lar
- Dog`larning assimmetrik joylashuvi
- Teri rangining bir xil bo`lmasligi

Gidroxinon ( $C_6H_6O_2$ ) – melazmani ddavolashda keng qo`llaniladigon eng samarali dori vositasi hisoblanadi. Ushbu preparate teri rangini ochartirish orqali pigmentatsiyani kamaytiradi. Gidroxinon quyidagicha ta`sir qiladi:

- Melanin ishlab chiqarishni ingibitledi
- Terini rangini oqartiradi
- Melazmani kamaytiradi

### **Gidroxinonning quyidagicha ijobiy tomonlari bor:**

- **Samaradorlik:** Gidroxinon melazmani davolash uchun eng samarali vosita xisoblanadi, u qisqa muddatda sezilarli natija beradi
  - **Keng qollanilshi;** turli xil teri pigmentatsiyalarida qo`llash mumkin, jumladan homiladorlikdegi tushadigon dog`lar, quyosh dog`lari va boshqa dog`larda
  - **Qulayligi:** mahalliy surtishga qulay losyon yoki krem shaklida bo`lgani uchun oddiy sharoitda ham qo`llash mumkin

**Gidroxinnondan** foydalanishning salbiy oqibatlariga esa quyidagilar kiradi:

**Ochronosis;** Surunkali foydalanish ekzogen oxronozga sabab bo`ladi. Ikra kabi ko`rinuvchi ikraga o`xshash deb ataluvchi giperkromik populalarga sabab bo`lishi

**Teri yupqalashishi :** uzoq muddatli qo``lanish terini yupqalashishiga sabab bo`ladi va shikastlanishga olib keladi

**Allergik reaksiyalar:** ba`zi insonlarda gidroxinonga nisbatan allargik reaksiyalar kuzatilshi mumkin

**Potensial xavf:** ba`zi tadqiqotlar gidroxinonni qo`llash xavfsizligi bo`yicha gumonlarni keltirib chiqarganligi bois ba`zi mamlakatlarda taqiqlangan.

**Teri irritatsiyasi:** ba`zi xollarda terida qizarish, qichishish yoki yalliglanish kuzatilshi mumkin

Bundan tashqari gidroxinon nafaqat inson terisiga balki kasbiy muhitda o`sma bilan bog`liq gemototoksik hamda kanserogendir. Insonning gidroxinon bilan ta`siri ovqatlanish, kasbiy va maishiy ehtiyojlar (soch bo`yoqlari, ayrim kremlar kosmetik preparatlar orqali) bo`lishi mumkin. Atrof muhitda gidroxinon suvda yashovchi organizmlar uchun zaharlilagini ko`rsatgan. So`ngi tadqiqotlar natijasiga ko`ra gidroxinon DNKing shikastlanishiga sabab bo`lib kanserogen xavfini oshirishi va umumiyl immunitet reaksiyalarini buzishi mumkinlini ko`rsatgan.

### **Xulosa:**

Melazma keng tarqalgan teri muammosi bo`lib, uni davolash uchun eng samarali vosita bu gidroxinon hisoblanar ekan. Ushbu preparatni to`g`ri va ehtiyyotkorlik bilan qo`llanilshi lozim. Gidroxinonning ijobiylari ko`p bo`lsada uning salbiy ta`sirlarini ham hisobga olib mutaxasisi tavsiyasi bilan qo`llagan ma`qul ekan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. molecules- Skin pigmentation types, causes and treatment. molecules review Cureus – Topical Hydroquinone for Hyperpigmentation. Curies Review.
2. TOPICAL HYDROQUINONE FOR HYPERPIGMENTATION: A NARRATIVE REVIEW- authors: Various authors, available on Cureus.
3. ADVANCES IN COSMECEUTICAL NONOTECHNOLOGY FOR HYPERPIGMENTATION; -authors;Various authors, available on springer SPREADING OF DANGEROUS SKIN-LIGHTENING PRODUCTS AS A RESULT OF...authors: Variois authors,available on MDPI
4. GIDROXINON VA ATROF MUHITNING IFLOSLANISHI; authors: Fransisko J. Enguita va boshqalar Biomed Res int. 2013 PubMed